


JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

JIZZAX VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2024- YIL YANVAR-DEKABR (DASTLABKI MA'LUMOT)



**Tel.: 72-221-51-13
www.jizzaxstat.uz**

(2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra)

Jami faoliyat yuritayotgan

Year	Number of People
2020-y.	821
2021-y.	840
2022-y.	867
2023-y.	799
2024-y.	930

Sharof Rashidov	114
342	
G'allaorol	111
212	
Zomin	136
203	
Jizzax shahar.	199
604	
Baxmal	88
113	
Forish	46
110	
Zarbdor	60
95	
Paxtakor	36
92	
Do'stlik	45
73	
Arnasoy	28
62	
Mirzacho'l	27
58	
Zafarobod	26
45	
Yangiobod	14
33	


Yangi tashkil etilgan

Jizzax viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.




Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 25 812,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan* bo'lib, 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




mlrd. so'mda FHI, % da

*Yashirin iqtisodiyotni hisodga olgan holda



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tuman kesimida


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (28 838,9 ming so'm), G'allaorol tumani (58 381,9 ming so'm) hamda Zafarobod tumanida (20 127,4 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (16 954,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



*Yashirin iqtisodiyotni hisodga olgan holda


Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 25 111,4 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,3 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyati jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush G'allaorol tumani (42,7 %), Jizzax shahri (22,1 %), Paxtakor tumani (4,9 %), Forish tumani (4,3 %) hamda Zafarobod (4,2 %) tumani hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Mirzacho'l (118,3 %), Forish (110,8 %), hamda Yangiobod (108,2 %) tumanlarida kuzatildi.





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, shahar va tuman kesimida

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 195,2 mlrd. so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,7 % ga to'g'ri keldi.

*Sanoat ishlab chiqarishi hajmi,
yanvar-dekabr, mlrd. so'mda*



*Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning
jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*

*Sanoat ishlab chiqarishi FHI,
yanvar-dekabr, % da*




mlrd. so'mda

FHI, % da


Ishlab chiqaradigan sanoat hududlar kesimida

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi* 25 111,4 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 97,3 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-dekabr, mlrd. so'mda



Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-dekabr, % da




mlrd. so'mda


FHI, % da

*Yashirin iqtisodiyotni hisodga olgan holda

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab
chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 51,0 % (53,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 16,3 % (15,7 %), quyi texnologiyali 29,9 % (27,5 %) ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab sohasining ulushi - 47,7% (2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi –124,4% to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi –17,8 % (2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,2 % oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 10,3 % (2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 122,3 %) ni tashkil etdi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,1 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 124,6 % ni tashkil va ishlab chiqarish hajmi 2 605,6 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,2 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 20,5 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 43,0 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 15,4 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 115,6 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 3 979,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 82,8 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 603,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,8 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 57,6% ni hamda ishlab chiqarish hajmi 458,5 mlrd. so'mni tashkil etgan.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish-

2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 47,7 %, fizik hajm indeksi 124,4 % o'sdi, hamda ishlab chiqarish hajmi 12 319,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 46,0 % ni fizik hajm indeksi esa 115,8 ni tashkil etdi, hamda ishlab chiqarish hajmi 8 737,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi 72,1 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 355,6 mlrd. so'm kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (jumladan, ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblardan uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko'rsatilgan metallar (ba'zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,8 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 114,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 217,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, shahar va tumanlar kesimida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiya-sini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 386,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5 % ini) tashkil etgan.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini

<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>2023- yil yanvar-dekabr*</i>	<i>2024- yil yanvar-dekabr</i>
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	195 701,7	292 295,7
Gazsimon yonilg'ini, quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	78 784,2	94 237,5

* 2023-yil yanvar-dekabr oylari uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,3 mlrd. so'mga oshganligi kuzatildi.




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, shahar va tumanlar kesimida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 119,3 mlrd. so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 11,8 % ga pasayishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 37,0 % ga oshganligi kuzatildi.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-dekabr	2024- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta , ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	62 676,0	86 223,9	23 547,9
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	22 690,8	33 027,1	10 336,3




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi


Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7 014,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib*, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 27,2 % ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 27,4 % ni tashkil etgan.



*Kichik tadbirkorlik subyektlarining
jami sanoat ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi*



*yanvar-dekabr
ulushi, % da*



Jizzax sh.	42,1
2 400,3	
Yangiobod	100,0
80,3	
Arnasoy	100,0
409,7	
Sharof Rashidov	99,9
766,8	
Baxmal	98,0
147,6	
Zarbdor	78,9
136,4	
Forish	64,7
712,3	
Zomin	41,0
390,4	
Mirzachoʻl	53,0
130,6	
Paxtakor	37,3
433,7	
Doʻstlik	15,1
157,0	
Zafarobod	7,2
78,8	
Gʻallaorol	1,4
157,4	

Navoiy

● mlrd. soʻmda

Ulushi, % da

*Yashirin iqtisodiyotni hisodga olgan holda

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 83 ta loyiha bo'yicha 13 773,6 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 38,7 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 2073 ta yangi ish o'rinlari yaratildi

